

TA'LIM TIZIMIDA BAHOLASH MEZONINING DOLZARBLIGI

M. Soliyeva ¹*Annotatsiya:*

Ushbu maqolada Oliy talim va O'rta ta'limdagi o'quvchilarning bilim saviyasini, ko'nikma va malakalarini nazorat qilishning baho tizimi asosida talabaning har bir fan bo'yicha o'zlashtirish darajasidagi qo'yiladigan ballar va baholar haqida fikrlar berilib o'tilgan.

Kalit so'zlar: o'quvchi, o'qituvchi, baho, ta'lim, tarbiya, ko'nikma, reyting, bilim.

doi: <https://doi.org/10.2024/xxrq8v6o>

Hozirgi kunda Oliy talim muassasalarida talabalarning bilimini nazorat qilish va reyting tizimi orqali baholashdan maqsad ta'lim sifatini boshqarish orqali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga erishish, talabalarning fanlarni o'zlashtirishida bo'shliqlar hosil bo'lishini oldini olish, ularni aniqlash va bartaraf etishdan iborat va Oliy ta'lim tizimida talabalarga reyting ballik asosida baholar qo'yilib boriladi:

a) talabalarda Davlat ta'lim standartlariga muvofiq tegishli bilim, ko'nikma va malakalar shakllanganligi darajasini nazorat qilish va tahlil qilib borish;

b) talabalar bilimi, ko'nikma va malakalarini baholashning asosiy tamoyillari: Davlat ta'lim standartlariga asoslanganlik, aniqlik, haqqoniylik, ishonchlilik va qulay shaklda baholashni ta'minlash;

v) fanlarning talabalar tomonidan tizimli tarzda va belgilangan muddatlarda o'zlashtirilishini tashkil etish va tahlil qilish; g) talabalarda mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish, axborot resurslari manbalaridan samarali foydalanishni tashkil etish; d) talabalar bilimini xolis va adolatli baholash hamda uning natijalarini vaqtida ma'lum qilish; y) talabalarning fanlar bo'yicha kompleks hamda uzluksiz tayyorgarligini ta'minlash; j) o'quv jarayonining tashkiliy ishlarini kompyuterlashtirishga sharoit yaratish.

Fanlar bo'yicha talabalar bilimini semestrda baholab borish reyting nazorati jadvallari va baholash mezonlari asosida amalga oshiriladi. Nazorat turlari va uni amalga oshirish tartibi:

1) Nazorat turlari, uni o'tkazish tartibi va mezonlari kafedra mudiri tavsiyasi bilan oliy ta'lim muassasasining (fakultet) o'quv-uslubiy kengashida muhokama qilinadi va tasdiqlanadi hamda har bir fanning ishchi o'quv dasturida mashg'ulot turlari bilan birgalikda ko'rsatiladi.

2) Reyting nazorati jadvallari, nazorat turi, shakli, soni hamda har bir nazoratga ajratilgan maksimal ball, shuningdek joriy va oraliq nazoratlarning saralash ballari haqidagi ma'lumotlar fan bo'yicha birinchi mashg'ulotda talabalarga e'lon qilinadi.

3) Talabalarning bilim saviyasi va o'zlashtirish darajasining Davlat ta'lim standartlariga muvofiqligini ta'minlash uchun quyidagi nazorat turlarini o'tkazish nazarda tutiladi: joriy nazorat — talabaning fan mavzulari bo'yicha bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Joriy nazorat fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda, seminar, laboratoriya va amaliy mashg'ulotlarida og'zaki so'rov, test o'tkazish, suhbat, nazorat ishi,

¹ Soliyeva Maftuna Husan qizi, Samarqand davlat chet tillar instituti talabasi

kollokvium, uy vazifalarini tekshirish va shu kabi boshqa shakllarda o'tkazilishi mumkin; oraliq nazorat — semestr davomida o'quv dasturining tegishli (fanning bir necha mavzularini o'z ichiga olgan) bo'limi tugallangandan keyin talabaniq bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Oraliq nazoratining soni (bir semestrda ikki martadan ko'p o'tkazilmasligi lozim) va shakli (yozma, og'zaki, test va hokazo) o'quv faniga ajratilgan umumiy soatlar hajmidan kelib chiqqan holda belgilanadi; yakuniy nazorat — semestr yakunida muayyan fan bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni talabalar tomonidan o'zlashtirish darajasini baholash usuli. Yakuniy nazorat asosan tayanch tushuncha va iboralarga asoslangan «Yozma ish» (tibbiyot oliy ta'lim muassasalari uchun «Yozma ish» yoki OTKS (obyektiv tizimlashtirilgan klinik sinov) shaklida o'tkaziladi. Ta'lim yo'nalishi va mutaxassisliklari ayrim fanlarining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda fakultet Ilmiy kengashi qarori asosida ko'pi bilan 40% fanlardan yakuniy nazoratlar boshqa shakllarda (og'zaki, test va hokazo) o'tkazilishi mumkin.

4)Oraliq nazoratni o'tkazish jarayoni kafedra mudiri tomonidan tuzilgan komissiya ishtirokida davriy ravishda o'rganib boriladi va uni o'tkazish tartiblari buzilgan hollarda, oraliq nazorat natijalari bekor qilinadi hamda oraliq nazorat qayta o'tkaziladi. 5)Oliy ta'lim muassasasi rahbarining buyrug'i bilan ichki nazorat va monitoring bo'limi rahbarligida tuzilgan komissiya ishtirokida yakuniy nazoratni o'tkazish jarayoni davriy ravishda o'rganib boriladi va uni o'tkazish tartiblari buzilgan hollarda, yakuniy nazorat natijalari bekor qilinadi hamda yakuniy nazorat qayta o'tkaziladi.

Har bir fan bo'yicha talabaniq semestr davomidagi o'zlashtirish ko'rsatkichi 100 ballik tizimda butun sonlar bilan baholanadi. Ushbu 100 ball nazorat turlari bo'yicha quyidagicha taqsimlanadi: yakuniy nazorat uchun — 30 ball tizimdagi baho qo'yilsa ,joriy va oraliq nazoratlarga — 70 ball (fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda 70 ball kafedra tomonidan joriy va oraliq nazoratlarga taqsimlanadi). Bundan tashqari har bir talabaniq reyting daftarchasiga alohida qayd qilinadigan kurs ishi (loyihasi, hisob-grafik ishlari), malakaviy amaliyot, fan (fanlararo) bo'yicha yakuniy davlat attestasiyasi, bitiruv malakaviy ishi va magistratura talabalariniq ilmiy-tadqiqot va ilmiy-pedagogik ishlari, magistrlik, dissertasiyasi bo'yicha o'zlashtirish darajasi — 100 ballik tizimda baholanadi. Talabaniq fan bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichini nazorat qilishda quyidagi namunaviy mezonlar (keyingi o'rinlarda namunaviy mezonlar deb yuritiladi) tavsiya etiladi: Buni quyidagicha ko'rishimiz mumkin. • a) 86 — 100 ball uchun talabaniq bilim darajasi quyidagilarga javob berishi ,xulosa va qaror qabul qilish lozim 1)ijodiy fikrlay olish 2)mustaqil mushohada yurita olish; 3)olgan bilimlarini amalda qo'llay olish; 4)mohiyatini tushunish.

Nazorat turlarini o'tkazish muddati Talabalarqa Oraliq va yakuniy nazorat turlari kalendar tematik rejaga muvofiq dekanat tomonidan tuzilgan reyting nazorat jadvallari asosida o'tkaziladi. Yakuniy nazorat semestrning oxirgi 2 haftasi mobaynida o'tkaziladi. Talaba fan bo'yicha kurs loyihasi (ishi)ni ushbu fan bo'yicha to'plagan ballari umumlashtirilishiga qadar topshirishi shart.

Joriy va oraliq nazoratlarda saralash balidan kam ball to'plagan va uzrli sabablarga ko'ra nazoratlarda qatnasha olmagan talabaga qayta topshirish uchun, navbatdagi shu nazorat turigacha, so'nggi joriy va oraliq nazoratlar uchun yakuniy nazoratgacha bo'lgan muddat beriladi.Kasalligi sababli darslarga qatnashmagan hamda belgilangan muddatlarda joriy, oraliq va yakuniy nazoratlarni topshira olmagan talabalarqa fakultet dekani farmoyishi asosida, o'qishni boshlaganidan so'ng ikki hafta muddatda qayta topshirishga ruxsat beriladi. Talabaniq semestrda joriy va oraliq nazorat turlari bo'yicha to'plangan ballari ushbu nazorat turlari umumiy ballining 55 foizidan kam bo'lsa yoki semestr yakunida joriy, oraliq va yakuniy nazorat turlari bo'yicha to'plangan ballari yig'indisi 55 balldan kam bo'lsa,

u akademik qarzdor deb hisoblanadi. Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida semestr yakunida fan bo'yicha joriy, oraliq yoki yakuniy nazorat turlarining har biri bo'yicha saralash ballidan kam ball to'plagan talaba akademik qarzdor hisoblanadi.

Akademik qarzdor talabalarga semestr tugaganidan keyin qayta o'zlashtirish uchun bir oy muddat beriladi. Shu muddat davomida fanni o'zlashtira olmagan talaba fakultet dekani tavsiyasiga ko'ra belgilangan tartibda rektorning buyrug'i bilan talabalar safidan chetlashtiriladi. Talaba nazorat natijalaridan norozi bo'lsa, fan bo'yicha nazorat turi natijalari e'lon qilingan vaqtdan boshlab bir kun mobaynida fakultet dekaniga ariza bilan murojaat etishi mumkin. Bunday holda fakultet dekanining taqdimnomasiga ko'ra rektor buyrug'i bilan 3 (uch) a'zodan kam bo'lmagan tarkibda apellyasiya komissiyasi tashkil etiladi. Apellyatsiya komissiyasi talabalarining arizalarini ko'rib chiqib, shu kunning o'zida xulosasini bildiradi.

Baholashning o'rnatilgan talablar asosida belgilangan muddatlarda o'tkazilishi hamda rasmiylashtirilishi fakultet dekani, kafedra mudiri, o'quv bo'limi hamda ichki nazorat va monitoring bo'limi tomonidan nazorat qilinadi. . Reyting natijalarini qayd qilish va tahlil etish tartibi.

Talabaning fan bo'yicha nazorat turlarida to'plagan ballari semestr yakunida reyting qaydnomasiga butun sonlar bilan qayd qilinadi. Reyting daftarchasining «O'quv rejasida ajratilgan soat» ustuniga semestr uchun fanga ajratilgan umumiy o'quv yuklama soatlari, «Fandan olingan baho» ustuniga esa 100 ballik tizimdagi o'zlashtirishi qo'yiladi. Talabaning saralash balidan past bo'lgan o'zlashtirishi reyting daftarchasiga qayd etilmaydi. Har bir fan bo'yicha o'tkaziladigan nazorat turlarining natijalari guruh jurnali hamda qaydnomada qayd etiladi va shu kunning o'zida (nazorat turi yozma ish shaklida o'tkazilgan bo'lsa, 2 (ikki) kun muddat ichida) talabalar e'tiboriga yetkaziladi.

Yakuniy nazorat natijalariga ko'ra fan o'qituvchisi talabalarining fan bo'yicha reytingini aniqlaydi hamda reyting daftarcha va qaydnomaning tegishli qismini to'ldiradi.

Talabaning reytingi uning bilimi, ko'nikmasi va malakalari darajasini belgilaydi. Talabaning semestr (kurs) bo'yicha umumiy reytingi barcha fanlardan to'plangan reyting ballari yig'indisi orqali aniqlanadi. Talabalar umumiy reytingi har bir semestr va o'quv yili yakunlangandan so'ng e'lon qilinadi.

Diplom ilovasi yoki akademik ma'lumotnomani dekanat tomonidan rasmiylashtirishda fan bir necha semestr davom etgan bo'lsa, reytinglar yig'indisi olinadi. Talabaga imtiyozli diplom belgilashda uning har bir semestr yakunidagi fanlar bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichi hisobga olinadi.

Talabalarining nazorat turlari bo'yicha erishgan natijalari kafedralar, dekanatlar va o'quv-metodik bo'linmalarda kompyuter xotirasiga kiritilib, muntazam ravishda tahlil qilib boriladi.

Joriy, oraliq va yakuniy nazorat natijalari kafedra yig'ilishlari, fakultet va oliy ta'lim muassasasi ilmiy kengashlarida muntazam ravishda muhokama etib boriladi va tegishli qarorlar qabul qilinadi. Talabalarga olingan baholarni oxirida yakuniy qoidalarga amal qilib qo'yilgani ya'niy O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi test baholari va reyting ballarining xolisligini tekshirishni tashkil etadi va nazorat qiladi.

O'RTA TA'LIM TIZIMIDA BAHOLASH MEZONI

O'quvchining bilim darajasi, materialni mazmun va mohiyatan chuqur anglab yetishi, tushunishi, amaliyotda qo'llay olishi tahlilni asosli va ishonchli bo'lishi uchun zamindir. Tahlillar asosida xulosa va tavsiyalar ishlanadi, o'quv maqsadlarining fan yoki alohida bo'lim, mavzular bo'yicha kelgusi faoliyat uchun maqsadlar belgilab olinadi.

Sintez- ushbu toifa o'quv materialini alohida qismlarga ajratilgan tahlillari asosida yaxlit maqsadli natijani ifodalaydi. Baholash- o'quvchi tomonidan u yoki bu material (badiiy asar, qonuniyat va qonunlar, ilmiy izlanish natijalari, egallangan bilim darajalari) ning o'zlashtirish natijalarini indeks va indikatorlariga qarab aniq maqsad nuqtai nazaridan baho berishdan, munosabat bildirishdan, o'lchashdan iboratdir. Baholash jarayoni bilish natijalarini baholash mezonlariga asoslanilishdan iboratdir.

O'quv maqsadlarini topshiriqlarga aylantirish. O'quv jarayonini texnologiyalashtirishda o'quv maqsadlarini aniqlashtirish, uning natijasini belgilovchi nazorat topshiriqlarini ham ishlab chiqishni taqozo etadi.

Og'zaki nazorat- o'quv maqsadlaridan kelib chiqqan holda o'quvchining u yoki bu fan modul, mavzu bo'yicha o'zlashtirgan bilimi, ko'nikmasi, malakasi o'quvchi-o'quvchi; o'qituvchi-sinf jamoasi tarzida savol-javob, jonli kommunikativ muloqot, verbal munosabatlar tarzida baholanadi.

Og'zaki nazoratda o'quvchi o'zining bilim saviyasi, tayyorgarlik darajasi, fanga qiziqishi, iqtidorini namoyon qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. O'qituvchi o'quvchiga bergan savol va qo'shimcha savollar orqali uning ilmiy bilish qobiliyatining psixologik jihatlarini, pedagogik shart-sharoitlarini bilib oladi. Shuning bilan bir qatorda o'zining mehnati natijalari samaradorligiga baho beradi. Og'zaki nazoratning kamchiligi vaqtning chegaralanganligi; bitta mavzu bo'yicha sinfdagi barcha o'quvchilar bilimini bir vaqtning o'zida baholash imkonining yo'qligi; ko'p mehnat sarflanishi; butun bir jamoaning faolligini ta'minlay olmaslik shular jumlasidandir.

Yozma nazorat-o'quv maqsadini, unda qo'yilgan vazifalarning o'zlashtirish darajasini turli shakllardagi yozma nazorat ishlari orqali baholashdan iboratdir. Yozma nazorat turlari bayon, diktant, insho, ijodiy ish, referat, taqdimot, test va boshqalardan iborat bo'lib, o'quvchining mavjud o'zlashtirish darajasi, dunyoqarashi, shaxsiy munosabatlari, nuqtai-nazari to'liq ifoda etiladi. Yozma nazorat o'quvchining bilimi, ko'nikma va malakalarini haqqoniy, adolatli baholashning samarali usuli hisoblanadi.

Lekin, ushbu nazorat shaklida o'qituvchi va o'quvchining subyekt-subyekt tarzidagi kommunikativ muloqoti bo'lmaydi; ba'zi hollarda o'quvchidagi iqtidor o'zini namoyon eta olmaydi; yozma nazorat natijalari haqida birdan o'quvchiga ma'lumot berilmaydi; o'qituvchidan ko'p vaqt va mehnat talab etadi; o'quvchining pedagogik-psixologik xususiyatlari, holati yaqqol jonli namoyon bo'lmaydi.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida test sinovlari o'quvchilarning o'quv-bilimi qobiliyatlarini baholash maqsadida keng foydalanila boshlandi. 1992 yilda O'zbekiston MDH mamalakatlari ichida birinchi bo'lib, oliy o'quv yurtiga kiruvchilar uchun pedagogik testlarni amaliyotga joriy etdi.

Yopiq test topshiriqlari bir nechta javoblardan iborat bo'lib, barcha javoblar to'g'riga o'hshaydi, lekin ulardan bittasi to'g'ri bo'ladi. Yopiq test topshiriqlari javoblari son jihatidan 2-5 tagacha bo'lishi mumkin.

Ikkita javobi bo'lgan ("to'g'ri", "noto'g'ri") yopiq test shaklidagi topshiriqlar o'qituvchi tomonidan dastlabki tezkor ma'lumotlarni olish maqsadida foydalaniladi. Ya'ni, o'quv fani bo'yicha o'quvchining dastlabki umumiy tayyorgarligi, qiziqishi, bilim darajasi va boshqa maqsadlarda foydalaniladi. Masalan:

Kim sizda ingliz tili o'qituvchisi bo'lishga qiziqish uyg'otdi?

A) Ingliz tili o'qituvchim

B) O'zimning qiziqishim kuchli.

Ochiq test topshiriqlarida o'quvchining bir-ikki so'zdan iborat qisqa va aniq javoblari talab etiladi. Test so'rovnomasida faktlarga asoslangan javob uchun maxsus joy qoldiriladi. Masalan:

Ochiq testlarda bitta yoki bir nechta so'z matndan tushib qoldiriladi.

O'quvchilar bilimini baholashda test topshiriqlarining shakllari va mazmuni o'qituvchi tomonidan maqsadning qo'yilishiga qarab tanlanadi. Pedagog olimlar tomonidan pedagogik test topshiriqlari shakllari ilmiy asoslangan. Ular quyidagicha tasnif etilgan:

birdan-bir to'g'ri javobi bo'lgan yopiq topshiriqlar:

bir necha to'g'ri javoblari nazarda tutilgan yopiq topshiriqlar:

bitta so'z (yoki so'zlar) tushirib qoldirilgan gapdan tashkil topgan ochiq topshiriqlar;

to'g'ri ketma-ketlikni aniqlash uchun topshiriqlar (ularni bajarishda betartib holdagi so'zlardan gap tuzish zarur);

o'zaro bog'lanishni (muvofiglikni) aniqlash uchun topshiriqlar;

ayrim fanlar bo'yicha bilimlarning chuqurligini aniqlash bo'yicha topshiriqlar;

sonni to'ldirishga mo'ljallangan topshiriqlar, bunda sonlar seriyasini topish usulini aniqlash testlari;

masalalar yechishga qaratilgan (matematik fizik va b.q) topshiriqlar;

chizmalar va sxemalarni tushunishga qaratilgan topshiriqlar;

olingan axborotni o'zlashtirish darajasini aniqlash uchun topshiriqlar;

sinonimlar va antonimlarni farqlashga topshiriqlar;

analogiya (aynan o'xshashlik)ga oid topshiriqlar;

o'qilgan matnni tushunishga oid topshiriqlar;

ko'rsatmalarni bajarishga oid topshiriqlar;

bilimdonlikni aniqlashga oid topshiriqlar;

tafakkurni aniqlovchi testlar;

orfografik testlar;

til masalalariga doir topshiriqlar va boshqalar;

Test nazoratining boshqa nazorat turlariga nisbatan o'ziga xos afzalliklari mavjud bo'lib. Ular quyidagilardan iboratdir:

imtihon biletlari 3 ta savol bilan chegaralanadi, lekin 5 ballik baho tizimidan butun o'quv fani bo'yicha foydalaniladi, lekin test yoki bo'limi mazmuni bo'yicha bilish o'quvchi darajani aniqlovchi savollarga javob beriladi;

o'quvchining bilim darajasi obyektiv, adolatli baholanadi;

vaqtdan unumli foydalaniladi;

barcha o'quvchilar uchun bir xil sharoit yaratiladi;

test natijalarining baholash mezonlari, beriladigan javoblar oldindan aniqligi;

test nazorati AKT lar vositasida avtomatlashtiriladi;

test topshiriqlarining ba'zi kamchiliklari ham mavjud.

Test nazoratida o'quvchining hissiy-emosional holati, qobiliyati, kommunikativ faoliyati namoyon bo'lmaydi. O'quvchi tomonidan test javoblarini to'liq, erkin yozma yoki og'zaki bayon etish chegaralangan.

Reyting tizimi.

– muayyan xodisani oldindan belgilaydigan shkala bo'yicha baholash sanaladi. Reyting tizimi o'quvchilarning bilim sifatini nazorat qilish turi, metodi va shakli hisoblanadi.

Reyting tizimi o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ular quyidagilardan iboratdir:

nazoratning uch bosqichliligi ya'ni, joriy, oraliq, yakuniy;

nazorat topshiriqlarining og'zaki. Yozma, test tarzida doimiyligi, yalpiligi, izchilligi;

nazorat topshiriqlari natijalarini inobatga olishning yaxlitligi;

bilim, ko'nikma, malakalarni baholashning uzksizligi, haqqoniyligi, xosligi, adolatligi;

o'quvchini doimiy o'z ustida ishlashga undashi (5 ballik baho mezonlari asosida biletli nazoratda o'quvchi faqat imtihon jarayonida tayyorlanadi);

o'quvchilarga erkin, mustaqil, ijodiy ishlash, bilimlarni ixtiyoriy o'zlashtirishlari uchun shart-sharoit yaratilishi;

O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalari 4 ta o'zlashtirish darajasiga binoan reyting foizlari mezonlariga asoslanib o'zlashtirish ko'rsatkichlari quyidagicha aniqlanadi:

0-54- qoniqarsiz

55-70- qoniqarli

71-85- yaxshi

86-100- a'lo

Ushbu reyting tizimi o'quv maqsadlari natijasini baholash uchun qo'llaniladi. Tarbiya natijalari, o'quvchilarning tarbiyalanganlik natijasini baholashda esa tarbiya texnologiyasi maqsadlaridan kelib chiqqan holda alohida dasturiy mezonlar asosida baholanadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak o'quvchi va talabalarning bilim va ko'nikmalarini baholasi o'qituvchilarning pedagogik mahoratiga bo'liq. O'quvchilarning ko'nikmalari, mahoratlari, bilimlarini baholash o'qituvchi o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda baholash maqsadga muvofiqdir. Chunki har qanday o'qituvchi o'zining o'qitayotgan o'quvchilarini bilim darajasi qay darajada ekanini inobatga oladi va baholaydi. Shuning uchun baholashni individual hisobga olgan holda baholash maqsadga va mezonlarga muvofiqdir

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

[1]. Pulatova F. A. *The Role of Games and Their Significance at Different Levels of Learning Foreign Languages* // *Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities*. – 2023. – T. 18. – C. 69-70.

[2]. Daminova N.K., Jamalova N.U. *Ta'limni tashkil etish shakllari modulini o'qitishda interfaol ta'lim texnologiyalaridan foydalanish*. – Samarqand, 2021. – 116 bet

[3]. Aleks Muur. *Ta'lim berish va ta'lim olish: pedagogika, ta'lim dasturi va tarbiya*. Ikkinchi nashr. - Rutledj. 2012. 202-bet.

[4]. Mavlonova R.A. va boshqalar. *Umumiy pedagogika*. - T.: 2010 y. "Fan va texnologiya" nashriyoti.

[5]. Begmatova D.M., Daminova N.K. *Pedagogik ta'limotlar. O'quv qo'llanma*. - Samarqand, 2022.